

ERKIN A'ZAMNING "SHAYTONCHALAR KO'CHASI" QISSASIDA IRONIYANING IFODALANISHI

Tursunova Sojidxon Axmadjon qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada ironiya, uning ifodalanish usullari, ironiyaning turlari haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib, Erkin A'zamning "Shaytonchalar ko'chasi" asari tahlilga tortilgan. Maqolada asarda uchraydigan ironiyalarga alohida to'xtalib, ular ironiyaning qaysi turi ekanligi, ironiyani yuzaga chiqarishda qaysi usullardan foydalanilganligi alohida e'tirof etilgan. "Shaytonchalar ko'chasi" asarida uchraydigan ironiyalar, asosan, leksema yoki frazemalar orqali ifodalangan. Ironik mazmun ifodalashning ko'proq piching, kesatiq, mazax, kulgi, sha'ma kabi vositalarini uchratishimiz mumkin. Ironiya turlaridan gradual ironiya qo'llanilganiga guvoh bo'ldik. Maqolada yuqorida aytilgan barcha fikrlarga namunalar keltirilgan. Yangilik, olifta, jafokash, qori, hujum, eshon, shinavanda, kinoshinavanda va yana boshqa bir qator leksemalar yordamida ironik mazmun ifodalashning qaysi usullari yuzaga chiqqanligi haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ironiya, ironik mazmun, gradual ironiya, yangilik, qori, eshon, shinavanda, olifta, hujum, piching, kesatiq, istehzo, kinoya, konsultatsiya, mazax, tortiq, jafokash, xabar, tomoshabin, frazema.

Ironiya – ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik o'ziga xos yo'sinda tahlilga torta oladigan unsurlardan biri hisoblanadi. Asarda ironik mazmun ifodalashning turlari talaygina. Biz Erkin A'zam asarlarida uchraydigan ironiya va ular yuzaga chiqqan ironik mazmuni tahlil qilishga harakat qildik. Dastavval ijodkorning "Shaytonchalar ko'chasi" asarini tahlilga tortdik.

Ko'chamiz torgina edi: Unda Shoimdan bo'lak hech qaysimiz velosipedni iziga burib ololmasdik – na men, na Tillo.

Ko'chamiz sershovqin edi: har dam, har daqiqa yashin chaqnagandek, u yerda biron bir antiqa yangilik-tasodif sodir bo'lib turardi.¹

Yangilik so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati" da shunday ta'rif berilgan: "Yangi holat, yangi ekanlik. Ilgari ma'lum bo'lmagan, yaqindagina paydo bo'lgan narsa yoki hodisa; yangi xabar, ma'lumot".²

¹ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 7.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 5-tom. 2006. – B. 113.

Yangilik deganda, avval ma'lum bo'lmagan biror kashfiyot tushuniladi, asarda yangilik so'zi sho'xlik, shumlik ma'nosida ishlatilgan. Bu bolalar uchun yangilik emas, odatiy hol. Kinoya yangilik so'zi vositasida yuzaga chiqqan.

–Ha, qori aka, yana mullalikmi? – Meni ko'rgan Shoim quvnoq tortib o'rnidan turadi. – Derazangni shuncha chertaman – sado chiqsa-chi! Berilib ketibdilar-da, ke qo'y, diqqatlarini buzmayin endi deb, keyin Farhodan aytib yubordim.

–Ha, shunday biroz...

–O'zi to'rt-besh kunlik kanikulga kepti-yu, tag'in kitobga yopishib olganini! Yo, o'qishning o'rniga u yoqda, a?... Rostini aytsam...

–Rostini ayt, rostini ayt, - deya Tilloga o'xshab uning jig'iga tegmoqchi bo'laman.³

Qori, mulla so'zlari ijobiy ma'noda, odatda, Islom dinidan xabardor insonlarga nisbatan ishlatiladi. “O'quvchi, Qur'onni qiroat bilan yoddan o'quvchi kishi. 1. Qur'onning barcha suralarini yod olgan va va ularni qiroat bilan o'quvchi shaxs. 2. Ko'zi ojiz, ko'r kishi (hurmat yuzasidan ularni shunday atashadi)”⁴ Keltirilgan jumlada “qori aka”, “mullalikmi” so'zlari orqali kitob o'qishga mukkasidan ketgan, kitobni qo'lidan qo'ymaydigan bolaga kesatiq qilinyapti. Kesatiq ham ironik mazmun ifodalashning unumli usullaridan biridir.

Ayvonda Shoimning onasi kimnidir qarg'ayapti:

–Yana qaysi eshoni shahid tortmoqchi seni, qorang o'chgur? Beri ke deyman!..

–Ziyodullani urishyaptilar, - deydi Shoim kulib. – Juda sho'x-da, azamat. Gapga kirmaydi sira.

Onasi “sho'x azamat”ni qo'ltig'idan sudragancha, orqasiga shapatilay-shapatilay zinapoya tagiga olib keladi⁵.

Eshon so'zi ham din borasida ilmiy insonlarga nisbatan ishlatiladi. “3-shaxs, ko'plikdagi shaxs olmoshi; ular, mulla, shayx. Dindorlar orasida ma'lum obro' qozongan ruhoni, din peshvosi”⁶ Yuqorida keltirilgan parchada eshon so'zi orqali bolani yo'ldan urayotgan, boshqa ishga tortayotgan bolaga nisbat berilgan. “Sho'x azamat” birikmasi orqali kinoya kesatiq orqali ifodalanganiga guvoh bo'lamiz.

–Shoimjon bu juvonmargdi adabini o'zing bermasang... O'tgayam bormadi. Qiz hoida Mukar ketdi. Endi bo'lsa, dars qilishdi o'rniga – “Pul bering, kinoga boraman”, emish! He, senday kinoga boradigandi!.. O'qishi o'zi... Muallimlari dod deydi. Tunov kungi ota-onalar majlisida yer yorilmadiki, kirib ketsam buning kasridan!

³ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 9.

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 5-tom. 2006. – B. 341.

⁵ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 11.

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 5-tom. 2006. – B. 66.

“Kinoshinavanda” qo‘rqa-pisa yer ostidan akasiga mo‘ltirab turibdi. Ust-boshi tuproq.⁷

“Shinavanda – eshituvchi, radioeshituvchi. 1. Biror narsaga nihoyatda ixlos qo‘ygan; ixlosmand, ishqiboz, muxlis. 2. Biror ish kasb-hunarga mehr qo‘ygan, uni yaxshi biladigan, omilkor, hadisini olgan. 3. Kishi bilan dildan suhbatlashadigan, elakishib ketadigan. 4. Ulfat uchun hech narsani ayamaydigan, ulfatchilikni o‘rniga qo‘yadigan”,⁸ degan ma‘noni bildirsa, kinoshinavanda – kinoga juda ishqiboz ma‘nosini beradi. Jumlada o‘qishni unchalik eplolmaydigan, muallimlari o‘qimaganidan dod deydigan, lekin uydan qochib bo‘lsa ham o‘rtoqlari bilan kinoga boradigan bola tasvirlangan. Ust-boshi tuproq ekanligidan ham bolaning juda ham sho‘x ekanligi yoki ko‘chada o‘rtoqlari bilan “mushtlashib” kelayotganligini bilishimiz mumkin. Kinoshinavanda deya onasi o‘g‘liga kesatiq qilmoqda.

- Kim berdi buni senga? – U lovullab qog‘ozni parchaburush qilib tashladi.

- Anovi... “tap-tapxona”ning yonidagi Samad cho‘loqdi o‘g‘li, - dedi Tillo yerga boqqancha tutilinqirab.

- E-e, Salim oliftami? Tumshug‘ini ezib qo‘yaman! Qani o‘zi?

- Ketdi, apangga berib qo‘y, deb.

- Kalla! Olaberibsan-da senam? Xat-pati bilan jag‘iga solmaysanmi!

- Mopedga yangi fara beraman degan edi...

- Ahmoq!

Shoim turgan joyidan yulqingandek, shaxt bilan ko‘cha boshiga qarab otildi. Orqasidan chopdik. Yo‘lning yarmida Tillo negadir taqqa turib qoldi. Men ham to‘xtadim.

Shoim bamisoli uchib borarkan: “Ho‘-o‘, olifta-a, to‘xta-a, senda gapim bo‘or”, deb hayqirardi⁹.

Olifta so‘zi o‘ziga qarab yuradigan, ozoda insonlarga nisbatan ishlatiladi. “Olifta – 1. Kiyimiga va o‘ziga zeb beruvchi; satang, bashang. 2. Shunday kishilar uchun mos, satanglarga xos”.¹⁰ Olifta sifati ko‘proq qizlarga xos sifatlardan hisoblanadi. Yuqoridagi parchada o‘g‘il bolaga nisbatan “satang” ma‘nosida ishlatilgan. Olifta so‘zi orqali kesatiq mazmuni yuzaga chiqqan. Asar qahramoni Salimning ustidan istehzoli kulish – shu so‘z vositasida amalga oshirilgan.

Tillo ikkalamiz zavqdan yer tepib, chapak chalardik. Yonimizga Sanobar opa kelganini payqamabmiz ham. Hovuzga boryapti, qo‘lida satil.

–Shoim emasmi anovi? – deb so‘radi u.

⁷ Erkin A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 11.

⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 4-tom. 2006. – B. 574.

⁹ Erkin A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 12.

¹⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom. 2006. – B. 114

–Shoim, - deya javob qildi Tillo jang maydonidan ko‘z uzmay.¹¹

Jang maydoni birikmasi orqali ikki yigitning daxanaki jang qilayotgani nazarda tutilgan. Bunda ironiya kulgi vositasida ifodalangan.

–Gapga to‘n kiygizasiz-a lekin, Shoimjon, - deydi bir chetda ish tikib o‘tirgan yanga. So‘ng bizga yuzlanib, tamomila jiddiy ohangda uqtiradi: - Og‘zi charchamaydigan odam kerak buncha vaysashga. Shoimjon bir nimani biladilarki, gapiradilar-da. Rahmat sizga, Shoimjon-a, gapirabering!

–E-e, yanga, - deya, “nimkosa”ni fahmlamay, tanobi qochib iljayadi Shoim.

–Sizlarning ham hunarlaringni ko‘raylik, qani, shunchalik ezmalay olasizlarmi? – degancha o‘yib-o‘yib davom etadi yanga. – Birovlaring kitobdagi yolg‘on-yashiqdan boshqasini bilmaysizlar; birovlaring Majnun bo‘lib, magazinching qiziga... oti nimaydi – kelinimizning ham otini unutibmiz – ha, Lolaxonga erta-yu kech “o‘ldim-kuydim, yondim-tutadim”, deb xat yozasizlar...

Bu gap Tilloning qovog‘iga go‘yo tosh osadi.¹²

Yanganing “bir nimani biladilarki, gapiradilar” iborasi orqali aslida, hech nimani bilmaydigan, lekin tinmay vaysayveradigan inson nazarda tutilgan. Ko‘p vaysashni hunar darajasiga ko‘taradilar. Yanganing kesatiq qilishi ironik mazmunni paydo bo‘lishiga olib kelgan. Buncha vaysash uchun “charchamaydigan odam” kerakligini aytib piching qiladi yanga. Piching va kesatiq ironiyaning asosiy usullaridan hisoblanadi.

Men nima gap, nima shovqin desam, lofchi kelgan ekanlar-da. Aha-a, “algebradan zo‘r edim” dedimi shu? Zo‘r emish! Ey bolalar, kelib-kelib shuning gapiga ishonib o‘tiribsizlarmi? Bu qip-qizil yolg‘onchi-ku – to‘qson to‘qqiz prosent gapi lof! Sen, Shoim, bularga yaxshisi, “Taras Bulba”ning avtorini bilmay qolganingni aytib ber!..

–Aftini men qayoqdan bilay, shunday bir kitobdir-da, - deya yerga qarab to‘ng‘illaydi Shoim.

–Afti emas, xomkalla, avtorini! Av-tor!

–Yanga, Nor akamning “Belomor”laridan bormi?.. – Shoim o‘rnidan vazmin qo‘zg‘aladi.

Sanobar opa qo‘llarini beliga qo‘ygancha hujumda davom etadi:

–Tag‘in bu kishi papiros chekarmishlar, fi!..

–Iya, Shoimjon, o‘tiring, - deydi yanga Sanobar opaga bir nazar tashlab olib. Sanobar opa chimirilgan labini burib darvozaga ishora qiladi: “ketsin”.¹³

¹¹ Erkin A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 13.

¹² Erkin A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 15.

¹³ Erkin A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 16.

Hujum kimgadir qurol bilan hujumga o'tish deganidir. Bu yerda "hujumchi" gap bilan raqibiga zarba beryapti. Qo'lidan hech narsa kelmaydigan, lekin shu holiga chekadigan yigit ta'riflanadi. Odatda, hujum raqibiga nisbatan biror qurol bilan yoki musht bilan amalga oshiriladi va shu orqali unga zarba beriladi. Bu jumlada esa gap bilan hujum qilinayotganiga guvoh bo'lamiz. Istehzoli kulgi "fi" so'zi vositasida ifodalangan. Yuqoridagi jumlada ko'zga yaqqol ko'rinib turgan kinoya usullaridan biri – mazax. Sanobar Shoimni aft bilan avtorning farqiga bormasligini aytib istehzoli kulyapti. Bunda ironiya turlaridan gradual ironiya, ya'ni darajali ironiyadan foydalanilgan.

... - *Ajoyib davrlar!* – deydi Tillo maroq bilan. – *Esingdami, Amir, amakim bizni "shaytonchalar" der edi...*

–*Esimda, - deyman men. – Kechqurunlari mopedda stadionga borardik. Lolaxonning oldilariga, "konsultatsiya"ga. Bunisi ham esimda.*¹⁴

"Konsultatsiya – lotincha colsultatio so'zidan olingan bo'lib, maslahat degan ma'noni bildiradi. 1. Mutaxassisning yoki bilimdon, omil kishining biror masala bo'yicha maslahati. 2. O'qituvchilarning fanni o'zlashtirish uchun o'quvchilarga beradigani yordami; shunday yordam berish mashg'uloti. 3. Mutaxassislar maslahati orqali aholiga yordam ko'rsatuvchi muassasa".¹⁵ Lolaxonning oldiga kechqurun konsultatsiya bahona uchrashuvga borishlariga ishora qilingan. Konsultatsiya so'zi orqali kinoya mazmuni ifodalangan.

–*Qurib keting siz, odamni sharmanda qilib qancha gapga qoldirgansiz!* – deya nozli o'pkalaydi o'choqqa o't qalayotgan yanga. – *Boring, Tillojon-a, yoshlikda o'ynaganingiz qoladi. Bu kishi o'zlaricha valdirayveradilar, parvo qilmang. – So'ng eriga yuzlanib: - Yotishlarini! - deydi yasama zarda bilan. – Turing endi, ming qo'yli boyday uzala tushib yotmay! Mollar yem beruvsiz.*¹⁶

"Ming qo'yli boy" iborasi mol-davlati ko'p insonlarga ishlatiladi. Bu yerda mehnat bilan zo'rg'a kun ko'ruvchi, o'rta hol yashaydigan insonga nisbatan ishlatilgan. Ironiya – so'z yoki iborani o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo'llashdir. Yuqoridagi jumlada ibora o'z ma'nosiga teskari ma'noda qo'llanganiga guhov bo'lamiz. Kesatiq mazmuni ifodalashda frazemadan foydalanilgan.

Biz Nor amakining "eski dardlari"ni qulog'iga gap kirmay, ikki ko'zi ikki yoqqa parishon jalanglab turgan Shoimboyga qoldirib, mopedlarni sudragancha jo'namiz. Darvozadan chiqarkanmiz, orqadan Nor amakining quvnoq xitobi eshitiladi:

¹⁴ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 17.

¹⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 402.

¹⁶ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 18.

–Аmmo-лекин бо‘sh kelmaysan,shaytonchalar, ha! Hech bo‘lmasa... Eh, senlarning yoshingda bo‘lmadim-da!.. Senlardayligimda olov edim, olov! Yonib turgan olov-a, Shoimboy!..

*Nor amakining olovligi ham Shoimboyga tortiq!*¹⁷

“Eski dardlar” iborasi kinoya mazmunini yuzaga chiqargan, shu bilan bir qatorda, tortiq so‘zida ham sha‘ma mazmuni mavjud. Tortiq, odatda, biror quvonchli kunda yaqinlarimizga sovg‘a berishimiz. U yaqinlarimizga quvonch baxsh etadi. Yuqoridagi jumlada qahramonlarimiz vaziyatdan chiqish uchun Shoimni hamma narsaga balogardon qilib qochishmoqda. Shuni unga tortiq qilishmoqda.

*Biz – hammayoqni bosgan shumtakalar Bolta amakining qator-qator rastalarini ham, garchi kechasi ishimiz tushishi mumkin bo‘lgan kalladay-kalladay olmalarini ham, urush xotiralarini ham “usta Qahorning o‘g‘li” – jafokash Shoimga hadya etib, o‘zimiz stadiona juftakni rostlaymiz.*¹⁸

“Kechasi ishimiz tushishi mumkin” iborasi orqali bilishimiz mumkinki, bolalar har tunda olmalardan o‘g‘irlash maqsadida bog‘ga tushishadi. Yana “jafokash Shoim” birikmasida ham piching mazmuni mavjud. “Jafokash jafo tortuvchi degan ma‘noni bildiradi. 1. Azob-uqubatlar tortgan, boshidan kulfatlar, og‘irchiliklar kechirgan, ezilgan. 2. Mehnatkash, mehnatsevar”.¹⁹ Jafokash so‘zi piching ma‘nosida ishlatilgan ushbu jumlada o‘rtoqlari uchun noiloj jafokashlik qilayotgan Shoim o‘rtoqlari “qochishlari” uchun o‘zini “qurbon” qilayotgani ifoda etilgan.

Ko‘chamizda duv-duv gap: “Sanobarni yaqinda askarlikdan qaytgan amakivachchasiga berishmoqchi ekan, kechalab Ashur novvoyning cho‘lda ishlab yurgan injener o‘g‘li bilan qochib ketibdi. Ilgaridan ahdi paymon qilib yurishgan ekan”.

“Cho‘lda ishlaydigan injener...” Men uni bu atrofda sira ko‘rmagan edim. Ilgaridan ahd-paymon qilib yurishgan ekan-da.

*Xabar menga qiziq tuyulib, tandir osha sim “devor”dan Tillolarning hovlisiga mo‘ralayman.*²⁰

Xabar biror voqea-hodisa haqidagi ma‘lumot berish. Yuqoridagi jumlada esa, g‘iybat, mish-mish, ig‘voga nisbatan xabar so‘zi ishlatilgan. Ayollar orasida mish-mishga sabab bo‘lgan yangilik xabari butun qishloqqa yoyilgan. Shubhasiz, bu xabar qahramonimizni ham qiziqitirmay qo‘ymagan. Shu boisdan “sim devordan Tillolarning hovlisiga mo‘ralayman”, deya e‘tirof etmoqda.

¹⁷ Erkin A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 19.

¹⁸ Erkin A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 21.

¹⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 76.

²⁰ Erkin A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 26.

Qandaydir bolakay: “Ho‘ amaki, qo‘yib yuboring-e! Nima, o‘zingiz bola bo‘lmaganmisiz?” deb baqirarmish. Nor amaki javob bermas nuqul xo‘rsinar ekan. Shoim esa, bizni qutqarish o‘rniga, qo‘shqanotli archa darvozaga xayolchan suyanib turgan Sanobar opadan ko‘z uzmas emish. Tomoshabinlar – Farhod, uning olifta o‘rtog‘i, Shoimning kinosevar ukasi va yana allakimlar bizni masxaralab hiring-hiring kulisharmish²¹.

Tomoshabinlar, odatda, sahnada bo‘layotgan voqealarni, teatrni, aytaylik, sirkni tomosha qiluvchilardir. Yuqoridagi kinoyali tarzda e’tirof etilayotgan tomoshabinlar esa bolalar bilan yuz berayotgan voqeani jimgina kuzatib, bolalarni masxaralashmoqda.

“Shaytonchalar ko‘chasi” asarida uchraydigan ironiyalar orqali shunday xulosa qilishimiz mumkin:

–Asarda uchragan ironiyalar, asosan, leksema yoki frazemalar orqali ifodalangan.

–Ironik mazmun ifodalashning ko‘proq piching, kesatiq, mazax, kulgi kabi vositalarini uchratishimiz mumkin.

–Ironiya turlaridan gradual ironiya qo‘llanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom. 2006.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 4-tom. 2006.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 5-tom. 2006.
5. Erkin A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.

²¹ Erkin A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 33.